

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li

PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19841219>

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning normativ-huquqiy asoslari bank tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar iqtisodiyotning asosiy moliyaviy vositachilaridan biri sifatida investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish, kapitalni taqsimlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda strategik ahamiyatga ega institut hisoblanadi. Shu bois, ularning investitsion faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar zamonaviy iqtisodiy talablar va xalqaro standartlarga mos bo'lishi zarur.

Normativ-huquqiy asoslar banklarning investitsion faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari hamda boshqa tegishli reglamentlardan iboratdir. Ushbu hujjatlar banklarning kapital yetarliligi, likvidligi, risklarni boshqarish tizimi, investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va ularning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari va preferensiyalar ham muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda bank sektorida xalqaro standartlarga moslashish, xususan, Bazel qo'mitasi talablari, ESG tamoyillari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ni joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa banklarning investitsion qarorlarini yanada shaffof, asoslangan va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy baza investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlab, investorlar huquqlarini himoya qilish, bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratadi. Demak, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishda normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-377-son "Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 22 sentyabrdagi Qarori, respublikamizda yashayotgan aholining uy-joy sharoitini yaxshilashga va eng muhimi, uy-joyga muhtoj aholi toifalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur hujjat asosida 2023 yil 1 yanvardan boshlab dastlabki badalning va ipoteka krediti bo'yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun subsidiya berilgan fuqarolarning uy-joylarni sotib olish, qurish yoki rekonstruksiya qilishiga olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun yo'naltirilgan ish haqi va boshqa daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortilmaydi. Shuningdek, ushbu qarorda ko'zda tutilgan imtiyoz qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilar daromadining bir soliq davrida mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining sakson baravaridan oshmagan qismiga tatbiq etiladi.

"2022 yil 1 noyabrdan boshlab, xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan tayyor holda topshirish shartisiz qurilgan uylardagi kvartiralarini birlamchi uy-joy bozorida sotib olish

uchun ipoteka kreditlarini ajratishga hamda ular bo'yicha dastlabki badalning va ipoteka krediti bo'yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun subsidiya to'lashga ruxsat beriladi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tijorat banklariga ajratilgan mablag'lar hisobidan ipoteka kreditlari bozor stavkasi bo'yicha, bitta qarz oluvchiga beriladigan kreditning cheklangan miqdori belgilangan hamda qarz oluvchiga uy-joyning joylashgan joyi va maydonini mustaqil ravishda tanlash huquqi berilgan holda taqdim etilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tijorat banklariga ajratilgan mablag'lar hisobidan ipoteka kreditlari birlamchi uy-joy bozorida sotiladigan kvartiralarini (shu jumladan, yangi tartib doirasidan tashqari qurilgan va birlamchi uy-joy bozorida sotiladigan kvartiralarini) sotib olish uchun har yili tasdiqlanadigan ipoteka kreditining eng ko'p miqdoridan oshmaydigan miqdorda 20 yil muddatga va dastlabki badali sotib olinadigan kvartira qiymatining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda beriladi.

E'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi ikkinchi pog'onadagi banklar faoliyatidagi bir qator dolzarb muammolarning huquqiy yechimini topish imkonini berdi va banklarning investitsion jozibadorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etdi. Xususan, ushbu Qarorga ko'ra:

tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga kelishi, xo'jalik sub'ektlarining bank kassalaridan olgan naqd puldan maqsadli foydalanishlari ustidan nazorat qilish kabi ularga xos bo'lmagan funksiyalardan ozod etildi;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tizimli asosda tijorat banklari faoliyatiga umume'tirof etilgan zamonaviy normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlarini joriy etish, bank-moliya tizimi ko'rsatkichlarini xalqaro reyting baholash tashkilotlari hamda milliy mustaqil reyting baholash tizimiga muvofiq xolisona baholashni yanada takomillashtirish, xalqaro bank nazorati tamoyillari talablari doirasida tijorat banklarining kapitallashuvi yetarliligi, likvidlik va barqarorligi bo'yicha talablarni bajarishni ta'minlash, banklardagi risk-menejment tizimini bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasining tavsiyanomalarini hisobga olgan holda takomillashtirishni ta'minlash vazifasi yuklatildi;

tijorat banklarining raqobatdoshligi darajasini oshirish hamda banklarni ilg'or bank amaliyoti asosida faoliyat yuritadigan tizimga aylantirish, bank-moliya xizmat ko'rsatish sohasida aholining moliyaviy savodxonligi hamda huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish, aholining mamlakatimiz bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mijozlarning bank tizimiga bo'lgan talablarini doimiy monitoring qilib borish, bank xizmatlari ko'rsatish madaniyatini oshirish, mijozlarning ehtiyojlarini qanoatlantiradigan ilg'or bank xizmatlari ko'rsatish chora-tadbirlari belgilandi;

vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining tijorat banklari va ularning filiallari faoliyatiga aralashishi, shu jumladan, kredit portfeli va bank aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq tadbirkorlik tavakkalchiligini boshqarish, shuningdek,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 377-son "Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 22 sentyabrdagi Qarori. <https://lex.uz/docs/6203431>.

tasdiqlangan biznes-rejalarda nazarda tutilmagan xayriya va badal xarajatlarini amalga oshirish ta'qiqlandi;

tijorat banklarining ijobiy xulosasisiz ularni davlat dasturlarini moliyalashtirishga jalb etish man etildi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vaziriga har yilgi O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirishda xorijiy moliya institutlariga, chet el va mahalliy tijorat banklariga berilgan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat kafolatlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar qismida tegishli mablag'larni nazarda tutish majburiyati yuklandi².

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 maydagi PQ-4325-sonli "Davlat korxonalarini va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tuzilmasida Sanoatning bazaviy tarmoqlari, yoqilg'i-energetika majmui va geologiyani rivojlantirish moliyasi va tarifni tartibga solish bosh boshqarmasi negizida Tarif siyosati va davlat korxonalarini isloh qilish bosh boshqarmasi hamda Davlat ishtirokidagi tijorat banklarini isloh qilishni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etildi. Shuningdek, davlat ishtirokidagi tijorat banklarining raqobatbardoshligi, rentabelligi, faoliyatining tijoratlashganligi holatini, shu jumladan ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushining zamonaviy bozor sharoitlariga mos kelishi nuqtai nazaridan tahlil qilish, shuningdek, banklardagi korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini baholash, davlat ishtirokidagi tijorat banklarini isloh qilish jarayonlarining samarali muvofiqlashtirilishini ta'minlash vazifalari Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi³.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017 y., 07/17/3270/0004; 06.03.2018 y., 06/20/5370/0975-son; 23.07.2019 y., 07/19/4400/3468-son; 27.02.2021 y., 06/21/6179/0165-son.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 майдаги ПҚ-4325-сонли "Давлат корхоналари ва устав капиталида давлат иштирок этаётган тижорат банкларини реструктуризация ва ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.05.2019 й., 07/19/4325/3163-сон.